



"SHEVADA YASHAGAN TARIX: QORAKO'L OG'ZAKI
NUTQINING SIRLI MANZARALARI"

Farangiz Ramazonova Bobomurodovna.

TDTTrU Iqtisodiyot fakulteti 2-kurs talabasi.

ramazonovafarangiz1@gmail.com

ANNOTATSIYA: *O'zbek shevalari keyingi davrlarda muayyan darajada taraqqiyotga yuz tutayotganligi to'g'risida fikrlar aytib kelinmoqda, lekin shevalar keksa avlod nutqida o'zining tabiiy xususiyatini saqlab qolmoqda. Mazkur maqolada esa Buxoro viloyatining Qorako'l tumaniga xos bo'lgan og'zaki nutq namunalari shevaga oid so'zlar, ularning fonetik, leksik va semantik xususiyatlari yoritiladi. Qorako'l shevasi — bu nafaqat mahalliy aholi tilining o'ziga xosligi, balki xalqning tarixiy, madaniy va ma'naviy dunyosining ham aksidir. Maqolada shevada uchraydigan ayrim o'ziga xos so'zlar tahlil qilinadi, ular adabiy til bilan solishtiriladi va bu lahjaning xalq og'zaki ijodidagi o'rni ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: Qorako'l shevasi, lahja, og'zaki nutq, xalq tili, leksik xususiyat, adabiy til, so'z boyligi, til madaniyati, fonetik o'ziga xoslik, xalq og'zaki ijodi.

АННОТАЦИЯ: *В последние годы всё чаще высказываются мнения о том, что узбекские диалекты в определённой степени развиваются. Однако в речи старшего поколения они продолжают сохранять свою природную самобытность и уникальные особенности. В данной статье рассматриваются образцы устной речи, характерные для Каракульского района Бухарской области, а также диалектные слова, их фонетические, лексические и семантические особенности. Каракульский говор — это не только отражение языковой специфики местного населения, но и зеркальное отображение исторического, культурного и духовного мира народа. В статье проводится анализ отдельных диалектных слов, их сопоставление с*



литературным языком, а также раскрывается роль данного говора в народном устном творчестве.

Ключевые слова: Каракульский говор, диалект, устная речь, народный язык, лексические особенности, литературный язык, богатство лексики, языковая культура, фонетическая специфика, народное устное творчество.

ABSTRACT: *In recent years, there has been growing discussion about the gradual development of Uzbek dialects. However, these dialects still preserve their natural characteristics and authenticity, particularly in the speech of the older generation. This article focuses on examples of spoken language specific to the Karakul district of the Bukhara region. It analyzes dialectal words and their phonetic, lexical, and semantic features. The Karakul dialect reflects not only the linguistic uniqueness of the local population, but also their historical, cultural, and spiritual worldview. The article examines specific dialectal words, compares them with their equivalents in the literary language, and explores the role of this dialect in oral folk traditions.*

Keywords: *Karakul dialect, dialect, spoken language, folk speech, lexical features, literary language, vocabulary richness, language culture, phonetic characteristics, oral folk tradition.*

KIRISH

O'zbek tili shevalari xalqimizning boy til madaniyati, tarixiy taraqqiyoti va madaniy-ma'naviy hayotining muhim bir ko'zguvidir. So'nggi yillarda shevalarning ma'lum darajada rivojlanib, adabiy til bilan yaqinlashayotgani haqida fikrlar ilgari surilmoqda. Hududiy lahjalar orasida Buxoro viloyatining Qorako'l tumanida qo'llaniladigan sheva o'ziga xosligi, xalq og'zaki ijodi bilan chambarchas bog'liqligi va boy tildagi unsurlari bilan alohida o'ringa ega. Mazkur sheva nafaqat muloqot vositasi, balki Qorako'l aholisining tarixiy xotirasi, turmush tarzi va dunyoqarashini ifodalovchi tilshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan muhim manba sifatida ham e'tirof etiladi. Uning leksik tarkibi, fonetik xususiyatlari va frazeologik birliklari orqali xalqning qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari va milliy



tafakkuri yaqqol namoyon bo'ladi. Shu sababli, Qorako'l shevasining o'rganilishi nafaqat tilshunoslik uchun, balki mintaqaviy madaniy merosni asrash va anglash nuqtayi nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MATERIALLAR VA USULLAR

Qorako'l vohasida yashovchi aholining katta qismi o'g'uz lahjasida gaplashganligi bois buning aniq ta'siri foydalanayotgan so'zlarida (hovva-ha ,otiz-dala,tarp yer-qo'riq yer) ,shuning bilan bir qatorda azaliy ota-bobolarining lahja ,shevalari ham saqlanib qolgan .Bundan tashqari fors-tojik tilining Buxoro lahjasi elementlari ham ushbu shevada uchraydi (dukosa-ikkovlon,sax yer-qattiq yer,garmob-issiq suv,dahana-suvning og'zi, duvora-ikkinchi hosil,arakat -tishli o'roq,arra bilan ,kallapo'sh-do'ppi,araqchin -telpak ichidagi qalpoq degani).Albatta,arabiy so'zlar ham kam bo'lsa-da ,uchraydi.Bizga ma'lum bo'lgan ayrim yozma manbalarning tilini mazkur sheva bilan solishtirishga harakat qilamiz .Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma " asari Amir Temur davrida yozilgan va XVI asrning boshlarida o'zbek tiliga tarjima qilingan.Qorako'l shevasidagi ko'pgina so'z , atama va terminlar shu kitobda ham uchraydi .Masalan, ottilar (otdilar), choptilar(chopdilar)qochtilar (qochdilar),kettilar(ketdilar), xisht(g'isht),javr(jabr),andakkina (ozgina),darcha (kichik eshik),inak (sigir), sutum(ustun),muni (buni),orom(jim bo'lish), yoshinmoq(bekinmoq),bayik(baland),pishak (mushuk),islanish (hidlanish) kabi so'zlar hozir ham ishlatiladi.Ushbu kitobni Muhammad Ali ibn Darvesh Ali al-Buxoriy 1519-yilda fors-tojik tilidan turkiy -o'zbek tiliga tarjima qilgan .Yana bir tarixiy asar-manbaa Zahiriddin Muhammad Boburning " Boburnoma " asariga murojaat qilamiz ."Xeyli yaxshi edi ", " Xeyli bo'lur edi" (23-bet), "takalluf qilib ham yomon cholur"(164-bet), " ixtimom bila qo'rg'onning siniq-buzug'ini butkarib qo'porildi(142-bet), " bu navbat yoz yog'inlari jihatidin burudqa andoq suv kelipturkim ,aslo guzar topolmadik"(138-bet), " har axshom"(135-bet),"tong otqonda qo'rg'on girdida oz-oz og'loq urush bo'ldi "(99-bet), "qolichni baldog'lamaydur edim, qinida edi ,qilich sug'urguncha fursat bo'lmadi"(97-bet),



“Dorig’onni kiyikdek otquladik, Talabon mol-u qo’yini boladik”(177-bet). “Bo’sh otni tortilur edi, uzangusigacha , qoptolig’acha ko’p -ko’p bota -bota bu bo’sh ot ham 10-15 qadamcha yo’l yurib toliqur edi”(174-bet). Bunday misollar kitobda juda ko’plab uchraydi . Bu yerda keltirilgan “xeyli-xeli ; cholur -cholar, chalar; butkarib-bitkarib, bitirib; qo’porildi -turildi ; qo’pdi-turdi; rudqa- ro’tga, ariqqa; andoq-andak, ozgina; guzar-guzar, suvning sayoz joyi ; axshom-oqshom; girdi-girdi, atrofi; baldog’lash -baldog’lash, yalong; ochlash, butash; qin-qin ; dorig’onni-doriganni-uchraganni; qoptolig’acha-yonboshi-qo’ltig’igacha” , shaklida qorako’lliklar shevasida hozir ham ishlatiladi.

XVI asrning boshlarida yozilgan Muhammad Solixning “Shayboniynoma” asarida ishlatilgan ayrim so’zlarni ham misol tariqasida keltirib o’tish mumkin . Masalan, “ tutib o’zbekni sanga kelturoli”, “qolin o’zbek dorisa netgaybiz”, “ qiloli ul aro bizlar darxast”, “ ul sori doringiz andin so’ngra”, “ bo’ldilar qulluq etorda yakdil”, “Tengri bersa, muni avval ololi, so’ngra g’avg’oni alarg’a sololi”. Ma’lumki, Qorako’l shevasida “dorimoq” fe’li ishlatiladi. Uning ma’nosi “uchramoq”dir, ba’zi holda “kirishmoq” ma’nosida ham ishlatiladi(Eshmamat bu ishga qattiq doridi . Bilmadim ,menga dorigani yo’q). Bu shevada “olaylik”, ”solaylik”, “qilaylik”kabi fe’llar olali ,solali,qilali shaklida ishlatiladi. Muhammad Solix ham o’z vaqtida bu so’zlarni aynan shu tarzda ishlatgan.

Alisher Navoiyning “G’azallar”ida “suruk”-to’da, gala shaklida, “ovuch”-qoqmoq, chapak chalmoq, “qovdi”-quvdi, “raxt”-to’shak , kiyim-kechak shaklida berilgan. Shining bilan birga, hozirgi qorako’lliklar shevasidagi ba’zi so’zlarning yon qo’shnilaridan kirib kelganligini ham qayd etish lozim. Ular “doyi” so’zini ishlatmaydi. Bundan tashqari , xatti-harakatning bajarilishini anglatadigan ko’pgina fe’llarning talaffuzida ham o’zgarishlar sodir bo’lgan. Masalan, fe’l tarkibidagi “r” undoshi tushurib qoldirilishi : borgan-boran, kelgan-kelan , ketgan -ketan va.h.k. Quyidagi holat ham shevaning o’ziga xosligini namoyon qiladi : Toshkentga-Toshkenta, Buxoroga- Buxoroya, uyga -uya.

OLINGAN NATIJALAR TAHLILI



Bir soʻz bilan aytganda , bugungi Qorakoʻl shevasining shakllanishi XV-XVI asrdagi tarixiy jarayonlarga borib taqaladi , turkiy va oʻzbek lahjalari taʻsirida qarluq-qipchoq va oʻgʻuz -turk lahjalari negizida shakllangan hamda yon -atrofdagi qoʻshnilar bilan yaqin munosabatda boʻlgani bois ulardan ham oz-moz “qoʻshni tovoq”lar kirib kelganligi ayni haqiqatdir. Natijada, Qorakoʻl shevasi oʻzida koʻp qatlamli til unsurlarini mujassam etgan murakkab, ammo jozibador til tizimini hosil qilgan. Bu shevada qadimiy turkiy leksik qatlam bilan birga, fors-tojik tilidan kirib kelgan soʻzlar, shuningdek, arabcha diniy atamalar ham uchrab turadi. Ayni vaqtda, bu sheva mintaqaviy aloqalar, iqtisodiy va madaniy munosabatlar taʻsirida shakllangan boʻlib, undagi ayrim soʻzlar hatto qoʻshni viloyatlardagi shevalardan ham farq qiladi. Shu jihatdan qaralganda, Qorakoʻl shevasi — bu tarix, madaniyat va tilning uygʻunlashgan namunasi boʻlib, uni oʻrganish orqali biz oʻzbek xalqining til taraqqiyoti va madaniy aloqalarini chuqurroq anglaymiz.

XULOSA

Xulosa oʻrnida aytish kerakki,, Qorakoʻl shevasi oʻzining fonetik, leksik va semantik jihatlari bilan oʻziga xos til hodisasi sifatida alohida oʻrganishga loyiqdir. Bu sheva orqali nafaqat mintaqadagi xalqning kundalik muloqoti, balki ularning madaniy-maʼnaviy qarashlari, tarixiy xotirasi va ijtimoiy hayot tarzi ham namoyon boʻladi.

Qorakoʻl shevasi XV–XVI asrlarda shakllangan tarixiy til qatlamlarining hozirgi kungacha yetib kelgan namunasi. Uning tarkibida qarluq-qipchoq va oʻgʻuz-turk lahjalarning, shuningdek, fors-tojik, arab va qoʻshni hududlar tillarining taʻsiri koʻzga tashlanadi.

Maqolada tahlil qilingan ayrim soʻzlar misolida koʻrish mumkinki, Qorakoʻl shevasi adabiy til bilan ayrim jihatlarda farq qilsa-da, bu farqlar aynan hududiy til boyligini, xalqona tafakkur va hayot tarzini ifodalovchi til boyligi sifatida namoyon boʻladi.



Shu bois, bunday shevalarning o'rganilishi va saqlanishi — o'zbek tilining mintaqaviy taraqqiyoti va madaniy xilma-xilligini chuqurroq anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Beshim Mirzaqulov: "Do'rmon va do'rmonliklar tarixi.

Abduazizov A. **Shevalar va adabiy til.** — Toshkent: Fan, 1980.

Jo'raev N. **O'zbek shevalarining fonetik xususiyatlari.** — Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti, 2005.

Qodirov M. **Leksikologiya va shevashunoslik asoslari.** — Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 1999.

Solihov A. **O'zbek shevalari geografiyasi.** — Toshkent: Fan, 1987.

Raxmonov A. **Til va madaniyat: shevalarda ifodalangan xalq tafakkuri.** — Buxoro, 2014.

Mahmudov N., Ermatov T. **O'zbek tili dialektologiyasi.** — Toshkent: O'qituvchi, 1992.

Normurodov D. **Qorako'l shevasining ayrim leksik xususiyatlari.** // *Filologiya masalalari*, 2018, №2.

· Бромлей Ю.В. **Этнос и этнография.** — Москва: Наука, 1973.